

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rahbar va xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbiri o'tkazildi.


// 13.07.2021

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/covid-emlash>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rahbar va xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbiri o'tkazildi. Tashkilot xodimlarini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlashda ZF-UZ-VAC 2001 nomli Xitoy-O'zbek vaktsinasidan foydalanildi.

Mamlakatimizda koronavirusga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlardan biri fuqarolarni koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbirlari hisoblanadi. Bu jarayonda mutaxassislar emlashning afzalliklari, uning inson salomatligi uchun ahamiyati borasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ayni kungacha mamlakatimizda jami 4 996 862 doza vaktsinadan foydalanildi. Ulardan:

- 1-bosqich emlanganlar 3 057 120 nafarni,
- 2-bosqichda emlanganlar 1 436 293 nafarni,
- 3-bosqich emlanganlar 503 449 nafarni tashkil qildi.

Shu kungacha to'liq emlangan fuqarolar 921 623 nafarni tashkil qilmoqda.

Eslatib o'tamiz, 1 mart kuni ZF-UZ-VAC 2001 nomli koronavirusning yangi tipiga qarshi rekombinant (CHO cell) Xitoy-O'zbek vaktsinasi tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan edi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati